

## “NAZMI AQOID” ASARI NUSXALARI VA MUALLIFI HAQIDA

**Abdurahmon Latipov**

*Farg'ona davlat universiteti Tilshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD*

**Annotatsiya:** Maqolada Abu Hafs Umar an-Nasafiyning “Aqoid an-Nasafiya” asariga bitilgan turkiy nazmiy sharh “Nazmi aqoid” asari nusxalari, shuningdek, asar muallifi haqida mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit soʻz va iboralar:** “Nazmi aqoid”, “qoʻlyozma”, “toshbosma”, “Alisher Navoiy”, “aqidaga oid turkiy manzuma”.

“Nazmi aqoid” asari diniy-maʼrifiy, ilmiy-falsafiy, axloqiy-taʼlimiy yoʻnalishdagi turkiy manzuma boʻlib, shu davrdagi xalq dunyoqarashi, eʼtiqodi, tafakkuri haqida maʼlumot beruvchi manba hamdir. OʻzR FA SHI Asosiy fond va Hamid Sulaymon fondlarida “Nazmi aqoid” asarining quyidagi qoʻlyozma va toshbosma nusxalari mavjud:

1. 1242/1827-yilda kitobat qilingan 9209/I ashyo raqamli qoʻlyozma nusxa.
2. 1282/1865-1866-yilda koʻchirilgan 13285 ashyo raqamli qoʻlyozma nusxa.
3. 1285/1868-yilda koʻchirilgan 11946/II ashyo raqamli qoʻlyozma nusxa.
4. 1287/1870-yilda koʻchirilgan 12344 ashyo raqamli qoʻlyozma nusxa.
5. 1325/1907-yilda nashr qilingan 9950 ashyo raqamli toshbosma nusxa.

Navoiyshunos olimi O.Madaliyeva “Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar fondida 9209, 13285, 11946, 12344 ashyo raqamlari bilan saqlanayotgan qoʻlyozmalarda “Nazmi aqoid” asarining nusxalari mavjudligini, lekin 11946 ashyo raqami ostida saqlanayotgan qoʻlyozma kotibigina mazkur asar muallifi Alisher Navoiy deb berganligini taʼkidlaydi.

Keyinchalik mana shu qoʻlyozma asosida nashr qilingan toshbosma nusxalarda ham asar muallifi Navoiy deb qayd etilgan, degan fikrni ilgari suradi” [1, 207-b.].

Demak, ushbu asar buyuk shoir qalamiga mansub degan xulosalarning paydo boʻlishiga asosiy sabab Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar fondida 11946 ashyo raqami ostida saqlanayotgan qoʻlyozma nusxasi kolofonida asarning Alisher Navoiyga nisbat berilishidir.

1325/1907-yilda Toshkentda koʻchirilgan, 9950 ashyo raqamida saqlanayotgan toshbosma nusxada ham kotib tomonidan uning boshi va oxirida asarning Alisher Navoiyga tegishli ekanligi haqida maʼlumot berilgan. Mazkur toshbosma asar 70 sahifadan iborat boʻlib, nastaʼliq xat turida koʻchirilgan, 1036 baytdan iborat. Asar hoshiyalarida qoʻshimcha maʼlumot mavjud emas.



Kotib tomonidan muhr qo'yilmagan. Asarning oxirgi 70-sahifasida asarning toshkentlik kotib Sayyid Maqsudjon Shoshiy tomonidan ko'chirilganligi haqida ma'lumot berilgan: "Katabahu-l-faqiru sayyid Maqsudjon Shoshiy" [6, 70-b.].

Ushbu nusxada kotib tomonidan bu asar Alisher Navoiyga tegishli ekanligi haqida quyidagicha ma'lumot berilgan: "Bolig' ul-bulag'o va afsah ul-fusaho shu'aroyi turkiyzabonlarning ustodi va muqtadoyi Amir Nizom ul-milla va-d-din Alisher al-mutaxallas bi-n-Navoiy quddisa sirruhuning zubdai tasnifotidin va umdai ta'lifotidinkim, masoili e'tiqodot alfoz va iboroti javohirlarin nazm rastasig'a tizibdurlar va jami' ahli bid'at va zalolatlar e'tiqodi fosidlarin daloillar ilan rad aylab yuraklarin ezibdurlar.

Bu ma'danu-sh-shavohid va risolai purfavoidg'a nom "Nazmi aqoid" (bo'ldi)" [6, 1-b.]. Asarning so'nggi 70-sahifasida ham kotib tomonidan ushbu asarning Alisher Navoiyga mansubligi va 1907-yilning 27-avgustida Toshkent viloyatida kitobat qilingani haqida ma'lumot keltirilgan: "Al-hamdu lillahi va-l-minna, in nusxai sharif manzumi amiri kabir nizomu-l-millati va-d-din amir Alisher Navoiy marhum al-musamma bi-nazmi-l-aqoid dar ta'rixi bistum mohi sha'bon manba'u-l-fayz va-l-ihsan dar ruzi jum'a dar sanai hijriyya 1325, dar viloyati Toshkandi firdavsmonand, bahusni ixtitom baitmomi anjomid bifazlillahi va karomihii" [6, 70-b.].

"Nazmi aqoid" asarining Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida 11946 ashyo raqami ostida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasini o'rganish jarayonida ma'lum bo'ldiki, ushbu kulliyot 391 varaq, ya'ni yetti yuz sakson ikki sahifadan iborat. Unda to'rtta asar jamlangan:

1. "Xamsa" asari (tartib bilan "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy" dostonlari joylashgan)
2. "Nazmi aqoid" asari
3. "Lison ut-tayr" asari
4. "Mahbub ul-qulub" asari.

Ushbu kulliyotda "Nazmi aqoid" asari "Xamsa" asaridan so'ng kelib, majmuaning 303–317-varaqlarini band etgan, ya'ni hajman 29 bet, 15 varaqdan iborat, har bir varaqqa to'rt ustundan nasta'liq xatida novvotrang sharq qog'oziga kitobat qilingan bo'lib, 1038 baytdan iborat. Ustunlar qizil va ko'k siyohli jadvalga olingan. Matnning asosiy qismi qora, iqtiboslar, shuningdek, sarlavhalar nomi qizil rangda. Poygilar to'liq. Hoshiya chizig'i qizil rangda. Asar har biri alohida mavzu bilan ajralib turuvchi 109 ta manzumani o'z ichiga olgan. Qo'lyozma varaqlarining bichimi 50x30 sm. Qo'lyozmaning muqovasi kartondan bo'lib, to'q qizil rangda, sirti naqshli.

Asarning oxirgi 317-varag'ida kotib haqida: "Shahrisabziyi g'arib etib tahrir Yunusi mustamand faqiri haqir" degan ma'lumot berilgan bo'lib, asarning kotib Yunus Shahrisabziy tomonidan ko'chirilganini anglatadi [2, 318-b.].



Qo'lyozmaning 1907-yildagi toshbosma nusxalari esa 1036 baytdan iborat bo'lib, 316-varaqladagi quyidagi ikki bayt ushbu nusxalarda uchramaydi:

Āmī bāšār āmī mālākdīn šārif,

Taātu tāqva bīlā bōlgāy lātif.

Bu ulāmā bīrlā erur āvliya,

Özgälārī tayīfāi čāharpa.

Asarning so'nggi betida qo'lyozmaning ko'chirilgan sanasi haqida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "Dar ta'rixī nuzdahumi mohi sha'bon yavmi panjshanba in nusxai sharifi "Nazmi aqoyid"i Amir Alisher Navoiy dar mutobiqi mohi sanai 1285 budki dar xittai Toshkandi bemonand tahrir yoft". Ma'nosi: Amir Alisher Navoiyning ushbu "Nazmi aqoyid" nomli ulug' kitobining nusxasi 1285-yil sha'bon oyining o'n to'qqizida (milodiy 1868-yilning 5-dekabrida) payshanba kuni o'xshashi yo'q Toshkent hududida yozib tugatildi.

Hozirgi kunda fanga ma'lum bo'lgan ushbu asarning eng qadimgi qo'lyozmasi O'zR FA ShI Asosiy fondida 9209/I ashyo raqamida saqlanadi. "Kitobning 1b-50b sahifalarini egallagan ushbu asar turkiy tilda bitilgan. Qo'lyozma 1242/1827-yilda kitobat qilingan. Demak, asar qariyb 200 yillik tarixga ega. Kotibi noma'lum. Qo'lyozma varaqlarining bichimi 20x10 sm. Matn ikki ustunda bo'lib, qora siyohda sharq qog'oziga ko'chirilgan. Ustunlar jadvalga olinmagan. Poygilar to'liq. Kitobning muqovasi kartondan ishlangan, qora, qizil va sariq ranglar uyg'unligida, sirti bezakli. Nuqsoni: qo'lyozmaning muqovasi darz ketgan. Birinchi varag'i tushib qolgani sababli 1962-yil yigirma sakkizinchi oktabrda sharqshunos olim A.Nosirov tomonidan qayta ko'chirilib (№ 9950 toshbosmadan), yopishtirilgan" [2, 19-24-b.].

Mazkur asarning mavjud bo'lgan qo'lyozmalaridan yana biri 13285 ashyo raqami ostida saqlanadi". "Qo'lyozma 1282/1865-1866-yilda ko'chirilgan. Qo'lyozma varaqlarining bichimi 20x13 sm. Asar nasta'liq xatida sharq qog'oziga ko'chirilgan. Varaqlari namlik ta'sirida ancha uringan, ta'mirlangan va mog'orlagan o'rinlar ham yo'q emas. Umuman, qo'lyozma juda kir holatda. Matn ikki ustunga bo'lib ko'chirilgan, ammo jadvalga olinmagan. Matnni ko'chirishda, asosan, qora, ba'zan (iqtiboslar va sarlavhalar nomini yozishda) qizil siyohdan foydalanilgan. Poygilar to'liq. Muqovasi keyingi davrda ishlangan" [2, 19-24-b.].

Tadqiqotchi O.Madaliyevaning yuqorida keltirgan ma'lumotlaridan ma'lum bo'ladiki, "Nazmi aqoid" asarining 1242/1827-yilda kitobat qilingan 9209/I ashyo raqamli nusxasi fanga ma'lum mazkur qo'lyozmalarining eng qadimiysi bo'lib, asar muallifi ko'rsatilmagan. Faqat qo'lyozma nusxalarning 1285/1868-yilda ko'chirilgan 11946/II raqamli nusxasidagina asar muallifi sifatida Alisher Navoiy qayd etilgan. "Nazmi aqoid" asari Alisher Navoiyning "Xamsa", "Lison ut-tayr" va "Mahbub ul-qulub" kabi boshqa asarlari bilan bir kulliyotda kitobat qilingani mazkur asarning Alisher Navoiyga nisbat berilishiga sabab bo'lgan, degan



xulosaga kelish mumkin. “Nazmi aqoid” asari ushbu kulliyotda “Xamsa” asaridan so‘ng kelib, majmuaning 303-317-varaqlarini band etgan.

Asarning Maqsudjon Shoshiy tomonidan kitobat qilingan toshbosma nusxalarining barchasi 1325/1907-yilda Toshkentda bosilgan va O‘zR FA ShI Hamid Sulaymon fondida № 256, 1790, 2885, 6113, 9950, 21078 ashyo raqamlari ostida saqlanmoqda. 11946 ashyo raqamli qo‘lyozma matni bilan 9950 ashyo raqamli toshbosmani solishtirganimizda aynan shu nusxaning toshbosma matni uchun asos bo‘lgani aniqlandi. Bu ikki matnlar orasida farqlar yo‘q. Asarning toshbosma nusxasidagi kolofonida ham uning Alisher Navoiyga nisbat berilishi shundan. Sababi asar qo‘lyozmalarining faqat 11946 ashyo raqamli nusxasi kolofonidagina muallif Alisher Navoiy deb berilmoqda.

Asarning 9209/I va 11946 ashyo raqamli qo‘lyozma nusxalarida sharqshunos olim Abdulla Nosirov tomonidan yozib qoldirilgan izohlar mavjud. 9209/I ashyo raqamli qo‘lyozma avvalida olim eski o‘zbek yozuvida quyidagi ilovani qoldirgan: “Taxallusi nozim – Mashhur, ya’ni nazm qilg‘uvchi Mashhur taxalluslik shoirdur” [4, 1-b.]. 11946 ashyo raqamli qo‘lyozmaning ham avvalida olim tomonidan eski o‘zbek yozuvida bitilgan ma’lumotlar bor: “Nazmi aqoid”ni Navoiyga nisbat berilishi to‘g‘ri bo‘lmagan. Bu haqda shu “Nazmi aqoid”ni eng oxiridagi “Hayrat ul-abror amiri kirom” deb yozilgan maqta’ni mazmuni – ma’nosi shuni hal qiladi, ya’ni Navoiydan emasligini ko‘rsatadi. Ham biror joyda Navoiy taxallusi yo‘q” [3, 1-b.].

Shuningdek, sharqshunos olim A.Nosirov Navoiy aqida ilmiga bag‘ishlab, “Siroj ul-muslimin” nomli asar yozganini ta’kidlaydi [4, 1-b.], [3, 1-b.]. Lekin olimning ushbu fikrlariga to‘liq qo‘shilmagan holda aytish mumkinki, “Siroj ul-muslimin” asarida faqat 26 bayt aqidaga oid bo‘lib, fiqhiy masalalar bayoniga esa 116 bayt bag‘ishlangan, “Nazmi aqoid”da esa faqat aqidaviy masalalar bayon qilingan, fiqhiy masalalar asardan o‘rin olmagan.

“Nazmi aqoid” asari muallifi haqidagi ilmiy izlanishlar va bildirilgan fikr-mulohazalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sharqshunos olim S.Oqilov [8, 387-392-b.] va A.S.Levend, A.Sevgi [9, 169-175-b.] kabi turkiyalik navoiyshunos olimlar ushbu asar Alisher Navoiyga tegishli degan fikrni ilgari surganlar. Lekin afg‘onistonlik A.Vohidiy [10, 35-b.] va A.Nosirov [4, 1-b.], [3, 1-b.] kabi navoiyshunos olimlar asar muallifi Alisher Navoiy emas, balki Mashhur taxallusli yoki ismli shoir degan xulosaga kelganlar. Tadqiqotchi olim O.Madumarova “asar muallifi she’riyat qonunlaridan yaxshi xabardor va Navoiyga ixlosmand shoir degan xulosaga kelgan” [2, 19-24-b.]. Ushbu fikrlarni Navoiy asarlari ro‘yxati keltirilgan “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Makorim ul-axloq”, “Abushqa” kabi bir qancha manbalarda ham shoirning “Nazmi aqoid” nomli asar yozgani haqida ma’lumot berilmagani tasdiqlashi mumkin. Lekin asar qo‘lyozma nusxalarini o‘rganish jarayonida O‘zR FA ShI Asosiy fondida



9209/I raqam ostida saqlanayotgan va fanga ma'lum eng qadimgi 1827-yilgi nusxaning 3-  
varoq, 2-sahifa, 1-qatorida quyidagi bayt mavjudligi aniqlandi:

Sān nedān ibādāt etmāssān āḡā,

Āylā, Nāvāiy, sān itaāt āḡā.

از گا سن ای تمس ع بادت ز یدن سن

از کا اطاعت سن ز وای ای لا

“Nazmi aqoid” asarining keyingi nusxalarida bu bayt quyidagicha taqdim etilgan:

Sen deb emās, sīnki ibādāt āḡā,

Bāndā bōlub ōznī itaāt āḡā.

از کا ع بادت که ی ن س ای ماس د ی ب س ن

از کا اطاعت اوزنی ب ول وب ب نده

Bu ma'lumot “Nazmi aqoid” asarining Alisher Navoiy qalamiga mansubligini inkor  
etmaslikka chorlaydi, demak asar o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мадалиева О. Алишер Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-  
қийёсий тадқиқи // Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. – Тошкент:  
Tamaddun. 13-жилд, 2022. – 264 б. (207-В)

2. Мадалиева О. Навоийга нисбат берилган асар // Ёш шарқшуносларнинг  
академик Убайдулла Каримов номидаги XIV илмий-амалий конференцияси  
тезислари тўплами. – Тошкент: 2017. – 19-24 б.

3. Nazmi aqoid. Qo'lyozma. O'zbekiston FA SHI Asosiy fondi. Inv.  
№ 11946.

4. Nazmi aqoid. Qo'lyozma. O'zbekiston FA SHI Asosiy fondi. Inv.  
№ 9209/I.

5. Nazmi aqoid. Qo'lyozma. O'zbekiston FA SHI Asosiy fondi. Inv.  
№ 13285.

6. Nazmi aqoid. Qo'lyozma. O'zbekiston FA SHI Asosiy fondi. Inv.  
№ 12344.

7. Nazmi aqoid. Toshbosma. O'zbekiston FA SHI Hamid Sulaymon fondi. Inv. №  
9950.

8. Оқилов С. Абул Муъин ан-Насафийнинг “Баҳрул Калом” асарининг  
Сирожиддин Ўшийнинг “Бадъул Амолий” асарига таъсири // Али ибн Усмон ал-  
Ўший халқаро симпозиуми илмий мақолалари. Туркия Диёнат фонди ва ЎшМУ  
теология факультети. – Бишкек: 2018. – 387-392 б.





9. Ahmet Sevgi. “Nesefî akâidi”nin Ali Şîr Nevâî’ye isnat edilen manzûm bir tercümesi // Seljuk University Edebiyat Fakültesi Dergisi. 2014, № 31, 169-175.

10. Усмонов О. Афғон олимлари Навоий ҳақида // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар журналі – Тошкент: 1967, №8, 33-37 б.

